



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No9(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 348 sahifa,
11-sentyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi uzviylik va uzluksizlik masalalari: muammoning nazariy va amaliy jihatlar.....	10
A. A. Alimov, M. A. Rustamboyeva	
Bolalarda didaktik o'yinlar asosida aqliy faolligini rivojlantirish	16
Ismoilova Sabina Erkin qizi	
Ingliz tilida og'zaki nutq kompetensiyasining mazmuni, tuzilmasi va tarkibiy komponentlari	22
Nazarov Zafarjon Abdullajon o'g'li	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish	26
Sabirova Gulmira Sadik qizi	
Реализация компетентностного и нейродидактического подходов в профессиональной подготовке специалистов профессионального образования	32
Азизова Асалхон Руслановна	
Развитие воображения учащихся с нарушением зрения в процессе изобразительной деятельности... 36	
Бектурдиева Шохида Сатиболдиевна	
Musiqqa ta'limida raqamli texnologiyalar asosida o'quvchilarning musiqiy-kognitiv salohiyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	44
Rustamjonova Dilhas Ravshanbek qizi	
Tarbiyaviy jarayonlarda texnologik yondashuvni tadbiiq etishning pedagogik imkoniyatlari	50
Raxmatova Mexrinov Majitovna	
Bo'lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta'lim sharoitida ko'rishida muammolari bo'lgan bolalar bilan ishlashga tayyorlashning ilmiy-metodik asoslari.....	54
Xusnuddinova Zulayxo Xamidullayevna	
Biologiya fanini o'qitishda biologiya (maxsus pedagogika: logopediya) yo'nalishi talabalarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	61
Hakimova Musharraf Fozilovna, Hasanova Zebo Davlatovna	
Rus tilini o'qitish jarayonida talabalarining kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish metodlari... 66	
Alisherova Guldiora Fazogir qizi	
Taekvondo kyorugi sportchilari o'rta sinf o'g'il bolalarining surunkali og'riq tarqalishi	70
Boymirzozoda Islomjon Ergash o'g'li	
Orolbo'yi mintaqasida ekologik xavfsizligini ta'minlashning siyosiy-huquqiy asoslari.....	77
Kurbanbayeva Ulbosin Jumag'aliyevna	
Communicative Tasks to Develop English Speaking Skills in Grades 3-4	81
Malika Mutalliyeva	
SHAF-modeli asosidagi psixologik-pedagogik korreksion dasturning talabalarda chet tilini o'rganish samaradorligiga ta'siri	85
Ruzmetova Zilolakhon Dilmuradovna	
Boshlang'ich ta'lim mazmunini aksiologik paradigma asosida tizimlashtirishning pedagogik samaradorligi... 89	
Shabbazova Dilfuza Ro'zikulovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yumshoq (soft skills) ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik va metodologik asoslari	95
Yakubjonov Xasan Qahramonovich	
Yuqori sinf o'quvchilarining ingliz tilida o'qish kompetensiyasini rivojlantirishning lingvometodik asoslari	99
Zarifa Ko'paysinova	
Oliy ta'lim talabalarida epistemik agentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari.....	103
Nabiyeva Aziza Komil qizi	



Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarga texnologiya fanini o'qitishda assistiv va raqamli texnologiyalardan foydalanish kompetensiyasi.....	107
Abdujabbarova Zulfiya Usmanovna	
Ishsiz ayollarda umumiy hissiy yo'nalganlik va o'z-o'ziga munosabat o'rtasidagi psixologik bog'liqlik	114
Jurayeva Shaxnoza Saatmuradovna	
Kasaba uyushmalari xodimlarida tashkilotchilik-kommunikativ qobiliyatlarning psixologik xususiyatlari	119
Sharipov Hayotjon Safarovich	
Oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilarida kreativlik muammosining ilmiy-nazariy asoslari	125
Xolturayev Asqarjon Panjiyevich	
Bo'lajak nemis tili o'qituvchilarida til ko'nikmalarini rivojlantirishning lingvokognitiv asoslari va lingvodidaktik qiyinchiliklari.....	129
Atadjanova Shaxnoz Abbasovna, Jumayeva Gulxan Amrullayevna	
Harakatni analitik tahlil qilish asosida texnik tayyorgarlikni rivojlantirish samaradorligi.....	135
Jonibekova Fotimaxon G'ulomjon qizi	
The Role of School, Family, and Society in Advancing Inclusive Education	140
Solomons Donovan Benedict	
Nemis tilini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi samaradorligi	145
Sabirova Dana Davronovna	
Shaxs emotsional regulyatsiyasining stressga chidamlilik darajasiga ta'siri	150
Nurmatov Azizbek Nuraliyevich, Turaeva Manzura	
Talabalarda ilmiy muloqot to'siqlarini yengishning psixolingvistik modellari	154
Ataxanova Asaloy Alisher qizi	
Ingliz tilida akademik yozuv kompetensiyasini generativ sun'iy intellekt vositasida rivojlantirish	161
Bakiyeva Durdona Baxtiyarovna	
Zamonaviy jamiyatda qizlarning ma'naviy kamolotini kitobxonlik vositasida rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari	164
Norqobilova Pardaxol Rahmatovna	
Para stol tennisining paydo bo'lishi, tasniflash tizimi va rivojlanish tendensiyalari	168
Usmonova Hayotxon Akmaljon qizi	
Ta'lim va tarbiya nazariyasi hamda metodikasi doirasida "Funksiya va uning limiti" mavzusini o'qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi	172
Sodiqova Nodira Muhiddinovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik xususiyatini shakllantirishda oilaviy muhitning roli	177
Soliyev Mirzoxid Tursunxo'jayevich	
VIII–IX sinf o'quvchilarining kimyo fanidan differensial mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirish	182
A. J. Kurbanbayeva, Xabiyeva Gulbaxor Mangliboy qizi	
Sun'iy intellekt asosida tabiiy fanlarni o'qitishning pedagogik modeli: nazariya va amaliyot.....	186
Qurbanbayev Baxtiyar Baxitovich	
Finlandiya tajribasi asosida maktabni boshqarishning zamonaviy modeli va pedagoglarni salohiyatini oshirish: ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarishdagi o'rni.....	194
Komilova Ziroatxon Murodjon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida vokal ijrochiligi qobiliyatlarini shakllantirishning pedagogik zarurati va mexanizmlari	199
Sobirova Nasiba Aliyor qizi	
Adaptiv-rezidentura modelining konseptual arxitekturasini va bosqichlararo bog'liqligi.....	205
Ataxanov Xamidillo Kozimjanovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanishning interaktiv metodikasi	212
Toshquvatova Gulchehra Mirpulat qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning gimnastika vositalari orqali jismoniy faolligini oshirish	215
Kurbonova Shodiya Baxtiyor qizi	

Tabiiy fanlarni o'qitishda o'quv-loyiha ishlarini tashkil etish metodikasi	219
Boymatov Bekzod Xidirboyevich	
Boshlang'ich sinf darslarida didaktik usullardan foydalanishning o'ziga xos jihatlari	225
Nishanova Gulbahor Xamidjonovna	
Insultning o'tkir va erda tiklanish davrlarida nutq buzilishlarini aniqlash va individual logopedik reabilitatsiya asosida nutq funksiyasini tiklashni takomillashtirish	229
Yusupova Feruza Akiljanovna	
Ta'lim sohasida jismoniy tarbiya va sportning o'rni va ahamiyati.....	233
Xudaykulov Zafar Beknazarovich	
Talabalarda sog'lom ma'naviy muhitga qadriyatli munosabatlarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	240
Davronova Dildora Saidovna	
Metakognitiv o'qish strategiyalarining mazmuni, tuzilmasi va kognitiv o'qish strategiyalari bilan o'zaro aloqasi	245
Matrasulova Iroda Maksud qizi	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini savod o'rgatishga tayyorlash pedagogik muammo sifatida va uning o'rganilganlik darajasi	249
Matyakubova Yulduzxon Atabekovna	
Talabalarining madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini takomillashtirishda ingliz folklor materiallarini tanlash mezonlari	253
Maxsudaliyeva Ra'noxon Baxodir qizi	
Talabalarda yengil atletikaga qiziqishni oshirish va motivatsiya omillari.....	259
Muqimov Olim Ergashevich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiylashtirishda o'qituvchining fasilitatorlik roli	266
Ortiqboyeva Zumradxon Xasanboy qizi	
Yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasida idoralararo pedagogik hamkorlikning tizimli mexanizmlari	271
Raxmonov Muhammadali Abdullajon o'g'li	
Badminton sport turida texnik-taktik harakatlarni boshlang'ich bosqichda o'rgatish metodikasini takomillashtirish	275
Saydullayev Abror Toxir o'g'li	
Boshlang'ich sinflarda hikoya janri matnlarini o'qitishga o'rgatish metodikasi.....	278
Xurramova Umida Azamatovna	
Autizm spektri buzilishlari bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda funksional kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish.....	284
Yakubova Asalxon Ulug'bek qizi	
Generativ sun'iy intellekt asosida musiqa ta'limini tashkil etish mexanizmlari.....	288
Teshaboyev Iloxomjon Inomjon o'g'li	
Raqamli ta'lim muhitida fizika fani mutaxassislarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy asoslari	291
Mamadaliyev Azamatjon Alijonovich	
Raqamli ta'lim texnologiyalari asosida talabalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning didaktik xususiyatlari.....	294
Abduraxmonova Dildora Alijon qizi	
The Need for Teaching English in the Globalized Era	299
Abdimuminova Khurriyat Abdimuminovna	
Maktab o'quvchilarida kreativ kompetentlikni neyropedagogik texnologiyalar yordamida shakllantirishning nazariy-metodik asoslari	304
Isroilova Navbahor Nurillo qizi	
O'smirlarda tajovuzkorlik va suitsidal xavfni kamaytirishga qaratilgan psixoprofilaktik chora-tadbirlar	314
Nahalboyeva Nigora Turdi qizi	



Ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	319
Nurmatova Go'zalxon Vohidjon qizi	
Talabalarda milliy o'zlikni anglash kompetensiyasining komponentlari	324
Djumaniyazov Umrbek Maxsudovich	
Zamonaviy pedagog gabitar imijining ta'lim jarayoniga ta'siri.....	328
Jo'rayeva Sohijamol Norqobilovna	
Malaka oshirish jarayonida maktab matematika o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish	333
Gafforova Sarvinov Asrorovna	
Social, Professional, and Psychological Adaptation of Military Servicemen	339
Asqarov Rahmatjon Rahimovich	
Keksalik davrida kundalik hayot qiyinchiliklarining psixologik xususiyatlari.....	344
Kurbaniyozova Ra'no Yuldashevna	

TALABALARDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH KOMPETENSIYASINING KOMPONENTLARI

Djumaniyazov Umrbek Maxsudovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Orcid id: 0009-0002-7984-0792

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarda milliy o'zlikni anglash kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishning mazmun-mohiyati, tarkibiy komponentlari hamda ularning o'zaro bog'liqligi tahlil etilgan. Milliy o'zlikni anglash kompetensiyasi talabaning o'z milliy mansubligini anglash, xalqining tarixi, madaniyati, ma'naviy merosi, milliy qadriyatlarini va an'alariga hurmat bilan munosabatda bo'lish, Vatanga daxldorlik va fuqarolik mas'uliyatini his etish qobiliyatlarini o'zida mujassamlashtirishi asoslangan. Shuningdek, har bir komponentning talaba shaxsining ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy va fuqarolik jihatdan rivojlanishidagi pedagogik ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: milliy o'zlik, kompetensiya, kompetentlik, talaba, komponent, milliy qadriyatlar, ma'naviy meros, milliy ong, milliy identifikatsiya, refleksiya, tarbiyaviy jarayon.

Abstract: This article analyzes the essence, content, and structural components of the formation and development of national identity competence in students, as well as their interconnection. The competence of national identity is based on the student's ability to realize their national identity, respect the history, culture, spiritual heritage, national values, and traditions of their people, and a sense of belonging to the Motherland and civic responsibility. The pedagogical significance of each component in the spiritual, moral, social, and civic development of the student's personality is also highlighted.

Key words: national identity, competence, competence, student, component, national values, spiritual heritage, national consciousness, national identity, reflection, educational process.

Аннотация: В данной статье анализируются содержание, структурные компоненты и их взаимосвязь в формировании и развитии компетенции национального самосознания у студентов. Обосновано, что компетенция национального самосознания воплощает в себе способность студента осознавать свою национальную принадлежность, уважительно относиться к истории, культуре, духовному наследию, национальным ценностям и традициям своего народа, чувствовать причастность к Родине и гражданскую ответственность. Также освещается педагогическая значимость каждого компонента в духовно-нравственном, социальном и гражданском развитии личности студента.

Ключевые слова: национальное самосознание, компетенция, компетентность, студент, компонент, национальные ценности, духовное наследие, национальное сознание, национальная идентификация, рефлексия, воспитательный процесс.

KIRISH

Milliy o'zlikni anglash tushunchasining mazmuniy chegarasini aniqlashga doir o'rganishlar hamda "talabalarda milliy o'zlikni anglash kompetensiyasi" mazmunini yoritib berishga doir izlanishlar natijasida (N. R. Yusupova, N. S. Fayzullayeva, S. R. Raxmanova, N. Zokirova, Sh. B. Suyunov, G. A. Saparova, M. M. Sharofiddinov, G. O. Ochilova va S. Sh. Akbarova, D. N. Taylakova, M. T. Shadikulova, M. Tilakova, A. S. Tixonov, N. K. Frolov, A. V. Xutorskoy, I. A. Zimnyaya, Y. G. Tatur, V. A. Bolotov, V. V. Serikov, X. S. Salavatova, T. Franchuk, O. Mozoliuk, A. D. Smith, S. A. Valchenko, I. I. Shumskiy, K. Kalanov, S. Shulman, O. David va D. Bar-Tal, M. Barrett) talabalarda milliy o'zlikni anglash kompetensiyaning kognitiv-mazmunli, aksiologik-munosabat, refleksiv-identifikatsion va faoliyatli-xulqiy komponentlari belgilab olindi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalarda milliy o'zlikni anglash kompetensiyasini shakllantirish masalasi pedagogika, psixologiya va madaniyatshunoslik yo'nalishlarida turli jihatlardan o'rganilgan.



N. R. Yusupova, N. S. Fayzullayeva, S. R. Raxmanova, A. V. Xutorskoy, I. A. Zimnyaya, A. D. Smith, M. Barrett kabi tadqiqotchilar milliy identiklik, kompetensiyaviy yondashuv va milliy o'zlikni anglashning nazariy asoslarini yoritganlar.

Shuningdek, S. M. Elkin, A. G. Kukushkina va E. F. Zhukova etnik identiklikning kognitiv jihatlarini, O. V. Koltan hamda E. K. Al-Yanai esa qadriyatli munosabat va aksiologik komponentning mazmunini tadqiq etganlar.

Mazkur ilmiy qarashlar talabalarda milliy o'zlikni anglash kompetensiyasining kognitiv-mazmunli, aksiologik-munosabat, refleksiv-identifikatsion va faoliyatli-xulqiy komponentlarini belgilash uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda talabalarda milliy o'zlikni anglash kompetensiyasining tarkibiy komponentlarini aniqlash maqsadida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va tizimlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy, kulturologik, aksiologik, shaxsga yo'naltirilgan, refleksiv-subyektli hamda faoliyatli yondashuvlar tashkil etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kognitiv-mazmunli komponentning nazariy asosi, avvalo, etnik identiklikni o'rganishdagi kognitiv yondashuv hamda ta'limdagi kulturologik yondashuv bilan bog'liq. Kognitiv yondashuv milliy yoki etnik mansublikning bilim va tasavvurlar bilan bog'liq tomonini ochib bersa, kulturologik yondashuv ushbu bilimning mazmunini tarix, til, madaniyat, an'ana, urf-odat va boshqa madaniy shakllar bilan aniqlashtiradi.

S. M. Elkin, A. G. Kukushkina va E. F. Zhukova bo'lajak o'qituvchilarning etnik identikligini tadqiq etib, uning kognitiv komponentini bevosita "etnik identiklikning axborot bazasi" sifatida tavsiflaydilar [1. 295-b.]. Ushbu komponent tarkibiga shaxs mansub bo'lgan etnik guruh haqidagi tasavvurlar, xalqning etnik madaniyati - an'analari, urf-odatlari, marosimlari va xalq ijodi haqidagi bilimlar, mamlakat tarixi, milliy tarkibi va millatlararo munosabatlar haqidagi ma'lumotlar, shuningdek, jahon madaniy taraqqiyotida milliy madaniyatning o'rni to'g'risidagi tasavvurlarni qamrab oladi.

Komponent nomidagi "mazmunli" aniqlashtiruvchi esa bilimning qanday predmetga yo'naltirilganligini hamda oddiy faktologik xabardorlik bilan chegaralanmasligini ifodalaydi. N. A. Astashova, S. K. Bondyrev va O. L. Zhuk kulturologik yondashuvni ijtimoiy-madaniy jarayonlar, etnik guruhlarining qadriyatli munosabatlari, o'ziga xos an'ana va urf-odatlari bilan ishlashga, shu bilan birga milliy identiklikni saqlagan holda ko'p madaniyatli muhitga moslashishga yo'naltirilgan yondashuv sifatida tavsiflaydilar [2. 29-30-b.]. Ushbu ma'noda umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosidagi madaniy yaxlitlik ta'lim mazmunining muhim yo'nalishi sifatida qaraladi.

Mazkur fikr kompetensiyaviy nuqtayi nazardan Yevropa Kengashi modelidagi "bilim va tanqidiy tushunish" kategoriyasi bilan ham uyg'unlashadi. Unda bilim shaxs ega bo'lgan axborotlar majmui sifatida, tushunish esa ma'nolarni anglash sifatida chegaralanadi. Tanqidiy tushunishda ushbu ma'nolarni faol mushohada va baholash nazarda tutiladi.

Xalq dostonlari ushbu komponentning mazmunini shakllantirishda milliy tarix, xalqning ijtimoiy xotirasi, dunyoqarashi, turmush tarzi, til boyligi, urf-odat va an'analari, axloqiy me'yorlari hamda ideal obrazlari haqidagi bilimlarni yaxlit madaniy matn doirasida o'zlashtirish imkonini beradi. Asosiy jihat doston tarkibidagi timsol, voqea, munosabat, axloqiy tanlov va ijtimoiy idealning qaysi tarixiy-madaniy ma'noni ifodalashini anglash, ularning xalqning tarixiy xotirasi va milliy dunyoqarashi bilan aloqasini tushuntira olishdan iborat.

Shu asosda, maqolamizda kognitiv-mazmunli komponent talabani millatning tarixiy taraqqiyoti, ona tili, madaniyati, urf-odat va an'analari, folklori, tarixiy xotirasi hamda milliy qadriyatlariga oid tizimli bilimlarni egalashi, xalq dostonlarida mujassam milliy-madaniy mazmun, timsol, g'oya va ijtimoiy-axloqiy tajribaning mohiyatini anglab, ularni o'zaro aloqadorlikda tushuntira va talqin qila olish qobiliyatini ifodalovchi tarkibiy komponent sifatida belgilanadi.

Aksiologik-munosabat komponent. Talabalarda milliy o'zlikni anglash kompetensiyasining aksiologik-munosabat komponenti milliy-madaniy hodisalarning shaxs uchun qadriyatli ahamiyat kasb etishi va ularga nisbatan ongli munosabat shakllanishini ifodalaydi.

O. V. Koltan qadriyatli-yo'nalgan (aksiologik) komponentning tarkibiga milliy hamjamiyatni muhim qadriyat sifatida e'tirof etish, o'z milliy mansubligiga ijobiy munosabat, tarixiy voqealar va milliy arboblarning faoliyatini baholash, ularning axloqiy motiv va maqsadlarini tushunish hamda milliy qadriyatlar tizimining shakllanganligini kiritadi [3. 231-b.].

Shuningdek, E. K. Al-Yanai qadriyatli munosabat tushunchasini maxsus tadqiq qilib, uni shaxs qadriyatli orientatsiyalari tizimining tarkibiy qismi bo'lgan va qadriyatlarning interiorizatsiyasi bilan tavsiflanadigan voqe-

likni subyektiv anglash sifatida belgilaydi [4. 23-b.]. Demak, aksiologik jihat milliy-madaniy hodisaning qadriyat sifatida e'tirof etilishini, munosabat esa ushbu qadriyatga nisbatan talabani shaxsiy baholovchi pozitsiyasini bildiradi.

Mazkur komponentning yetakchi metodologik tayanchi aksiologik hamda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar bo'lib, aksiologik yondashuv milliy tarix, til, madaniyat, Vatan, tarixiy xotira va ma'naviy merosning o'quv materiali darajasidan talabani ichki qadriyatli mezonlari darajasiga o'tishini taqozo etsa, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv esa ushbu qadriyatlarni talabani shaxsiy va madaniy tajribasi va ijtimoiy muhiti bilan aloqada anglashini nazarda tutadi.

Xalq dostonlari vositasida mazkur komponentning rivojlanishi dostonlardagi Vatan, el-yurt, or-nomus, sadoqat, vafo, jasorat, adolat, oila, avlodlar davomiyligi, burch va mas'uliyat kabi qadriyatlarning qahramon qarori va xatti-harakatini belgilashdagi o'rnini baholashi, ularning tarixiy-madaniy mazmunini zamonaviy shaxsiy va ijtimoiy tajriba bilan qiyoslashi hamda qaysi qadriyat nima sababdan uning shaxsiy pozitsiyasi uchun ahamiyatli ekanini asoslay olishi zarur. Shu jihatdan aksiologik-munosabat komponenti milliy merosni ko'r-ko'rona ideallashtirishni emas, anglangan va dalillangan qadrlashni nazarda tutishi lozim.

Shu asosda, aksiologik-munosabat komponenti talabani milliy tarix, ona tili, madaniy meros, tarixiy xotira, Vatan va xalq dostonlarida mujassam ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning shaxsiy hamda ijtimoiy qimmatini anglab, ularni o'z qadriyatli orientatsiyalari tizimiga kiritishi va ularga nisbatan ongli, barqaror hamda mas'uliyatli baholovchi munosabat bildiradi olish qobiliyatini ifodalovchi tarkibiy komponent sifatida belgilanadi.

Refleksiv-identifikatsion komponentning "identifikatsion" mazmuni milliy identiklikning bevosita ilmiy ta'riflari, "refleksiv-identifikatsion" terminining pedagogik qo'llanish imkoniyati esa kompetensiya strukturalariga oid tadqiqotlar doirasida asoslanadi.

L. M. Tarantey tomonidan milliy identiklikni rivojlantirish bilan bog'liq jarayonda subyektning madaniy-tarixiy merosni egallashga bo'lgan ichki ehtiyoji qadriyatli ma'nolarni kuchaytirishi va o'zini identifikatsiyalash jarayonlarini rag'batlantirishi ta'kidlanadi [5. 176-b.]. Demak, identifikatsiya shaxsning tashqi guruhviy belgini qayd etishi emas, milliy-madaniy mazmunni o'z pozitsiyasi bilan bog'laydigan ichki jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

N. S. Koshevayaning professional kompetentlik modelida aynan "refleksiv-identifikatsion" komponent aks etadi. Biroq mazkur tarkibiy qism kompetentlikning kombinator-shaxsiy tarkibiga kiritiladi [6. 381-b.].

Mazkur komponent metodologik jihatdan shaxsga yo'naltirilgan va refleksiv-subyektli yondashuvlar bilan bog'lanadi. Uning mohiyati tayyor milliy tavsiflarni talabaga singdirishda emas, talabani egallagan tarixiy-madaniy bilimlari va qadriyatlarini o'z shaxsiy tajribasi, "Men" obrazi, mansublik hissi va hayotiy pozitsiyasi bilan ongli ravishda nisbatlashda namoyon bo'ladi. X. Salavatovning milliy o'zlikni anglash kompetensiyasini shakllantirishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni alohida ko'rsatishi ham mazkur jarayonda talabani shaxsiy madaniy tajribasi va ijtimoiy muhitini hisobga olish zarurligini tasdiqlaydi [7. 159-b.].

Xalq dostonlari mazkur komponent uchun ayniqsa muhim refleksiv material vazifasini bajaradi. Talaba doston qahramonining kimligini, nima qilganini yoki qanday qadriyatni ifodalashini bilishdan tashqari, doston mazmunini "bu tarixiy-madaniy tajriba mening milliy mansubligim uchun nimani anglatadi?", "ushbu qadriyat mening hayotiy pozitsiyam bilan qay darajada bog'liq?", "men o'zimni ushbu madaniy davomiylikning qaysi nuqtasida ko'raman?" kabi shaxsiy-refleksiv savollar orqali idrok etadi. Ana shu jarayonda milliy mazmun tashqi bilim obyektidan shaxsning o'z-o'zini anglash manbasiga aylanadi.

Shu asosda, tadqiqotimizda refleksiv-identifikatsion komponent talabani o'z milliy mansubligini ongli anglash, millatning tarixiy-madaniy tajribasi bilan o'z "Men"i va hayotiy pozitsiyasi o'rtasidagi aloqani refleksiv baholash, xalq dostonlarida mujassam obraz, ma'no va qadriyatlarni shaxsiy milliy mansublik nuqtayi nazaridan talqin qilish hamda o'z milliy pozitsiyasini ongli ravishda asoslay olishni o'zida mujassam etadi.

Faoliyatli-xulqiy komponent talabalarda milliy o'zlikni anglash kompetensiyasining oldingi komponentlarda shakllangan bilim, qadriyatli munosabat va identifikatsion pozitsiyaning real tanlov, xatti-harakat va faoliyatda namoyon bo'lishini ifodalovchi tarkibiy qismidir.

"Faoliyatli-xulqiy" komponent E. K. Al-Yanai tadqiqotida ham kuzatiladi. Muallif qadriyatli munosabat tuzilmasida emotsional-motivatsion, kognitiv-refleksiv va faoliyatli-xulqiy komponentlarni ajratadi. Unga ko'ra, mazkur komponent "ta'lim oluvchilarning ongli tanlovda namoyon bo'ladigan va bevosita xulq-atvorda amalga oshiriladigan axloqiy pozitsiyalarini aks ettiradi" [4. 24-b.].

Mazkur komponentning metodologik asosini faoliyatli va kompetensiyaviy yondashuvlar tashkil etadi. Faoliyatli yondashuv nuqtayi nazaridan shaxsda shakllangan bilim va qadriyatning haqiqiy pedagogik natijasi uning subyekt tomonidan amaliy faoliyatga olib chiqilishi bilan namoyon bo'ladi.

Kompetensiyaviy yondashuv esa bu faoliyatni mexanik xulq emas, egallangan bilim, qadriyat va pozitsiyaga tayangan ongli hamda vaziyatga muvofiq harakat sifatida ko'rishga imkon beradi. Shu sababli talabani milliy tadbirda qatnashishi, doston matnini yod aytishi yoki tashqi milliy atributlardan foydalanishining o'zi faoli-



yatli-xulqiy komponentning yetarli ko'rsatkichi bo'la olmaydi. Bunday faoliyatning kompetensiyaviy mazmun kasb etishi uchun u talabani anglangan bilimlari, qadriyatli pozitsiyasi va o'z milliy mansubligiga nisbatan mas'uliyatli munosabati bilan bog'langan bo'lishi zarur.

Shu asosda, tadqiqotimizda faoliyatli-xulqiy komponent talabani milliy-madaniy bilimlari, qadriyatli munosabati va anglangan identifikatsion pozitsiyasini o'quv, ijtimoiy-madaniy va kommunikativ vaziyatlarda ongli tanlov, mas'uliyatli xatti-harakat hamda amaliy faoliyat orqali namoyon eta olish qobiliyatini ifodalovchi tarkibiy komponent sifatida belgilanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tuzilmaviy qarashlar talabalarda milliy o'zlikni anglash kompetensiyasining kognitiv-mazmunli, aksiologik-munosabat, refleksiv-identifikatsion va faoliyatli-xulqiy komponentlardan iborat tuzilishini mantiqan asoslash imkonini beradi. Shunga ko'ra, talabalarda milliy o'zlikni anglash kompetensiyasini talabani o'z millatining tarixiy taraqqiyoti, tili, madaniyati, folklori, tarixiy xotirasi va qadriyatlariga oid bilimlarni mazmunan anglash, ularning shaxsiy hamda ijtimoiy qimmatiga ongli munosabat bildirish, o'zini ushbu tarixiy-madaniy hamjamiyatga mansub subyekt sifatida refleksiv idrok etish hamda shakllangan milliy-qadriyatli pozitsiyasini real ta'limiy, ijtimoiy-madaniy va kommunikativ faoliyatda ongli xatti-harakat orqali namoyon eta olishni birlashtiruvchi integrativ pedagogik sifat o'laroq tavsiflanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Elkin S.M., Kukushkina A.G., Zhukova E.F. Study of the Future Teacher Ethnic Identity // European Proceedings of Social and Behavioural Sciences. - 2020. - Vol. 87. - P. 293-300. - DOI: 10.15405/epsbs.2020.08.02.37.
2. Асташова Н.А., Бондырева С.К., Жук О.Л. Подготовка будущего учителя к реализации идей поликультурного образования в диалоговом образовательном пространстве // Образование и наука. - 2019. - Т. 21. - № 2. - С. 27-50. - DOI: 10.17853/1994-5639-2019-2-27-50.
3. Колтан О. В. Национальная идентичность как социально-педагогическая категория // Исторические и психолого-педагогические науки: сб. науч. ст. - Минск: РИВШ, 2018. - С. 228-235. - (Научные труды Республиканского института высшей школы; вып. 18, ч. 3: Психологические науки. Педагогические науки).
4. Аль-Янаи Е. К. Формирование ценностного отношения старшеклассников к русскому языку в условиях лицейской образовательной среды: дис. ... канд. пед. наук: 5.8.1 - Общая педагогика, история педагогики и образования. - Благовещенск, 2022. - 209 с.
5. Тарантей Л. М. Развитие готовности педагогов к формированию национальной идентичности обучающихся: организационно-педагогические условия // Веснік Брэсцкага ўніверсітэта. Серыя 3. Філалогія. Педагогіка. Псіхалогія. - 2020. - № 1. - С. 173-179.
6. Кошечая Н. С. Модель структуры профессиональной компетентности специалиста будущего // KANT. - 2025. - № 2 (55). - С. 379-384. - DOI: 10.24923/2222-243X.2025-55.58.
7. Salavatova Kh. Methodological opportunities for developing national identity competencies in the educational context of New Uzbekistan // Foreign Linguistics and Lingvodidactics. - 2025. - Vol. 3, No. 1. - P. 156-162. - DOI: 10.47689/2181-3701-vol3-iss1-pp156-162.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №9(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.